

# JSST rahbari O'zbekiston Prezidentiga maktub yo'lladi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga Janobi Oliylari!

2020 yil sentyabr oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida ilgari surilgan Pandemiya davrida davlatlarning ixtiyoriy majburiyatlari to'g'risidagi xalqaro kodeks loyihasini Jahon sog'liqni saqlash tashkilotiga (JSST) taqdim etganingiz uchun Sizga minnatdorchilik bildirish sharafiga muyassarman.

COVID-19 pandemiyasi butun dunyo bo'ylab hamjamiyatlar va mamlakatlarga talafot yetkazishda davom etmoqda. O'tkir xalqaro inqirozga duch kelib, men favqulodda global yetakchilik va birdamlikka, imkon qadar keng doiradagi sheriklarni birlashtirishga, ko'p tomonlama sa'y-harakatlarni ishga solish va hech kimning orqada qolib kelmasligini ta'minlashga chaqirdim. Salkam bir yilda biz ilm-fan, vaksinalarni ishlab chiqish, sog'liqni saqlash amaliyotidagi misli ko'rilmagan yutuqlar, jamoatchilikni safarbar qilish va siyosiy sobitqadamlik tufayli kuchli yetakchilikka erishishning imkoni borligini ko'rdik.

Pandemiya sog'liqni saqlash tizimlarimiz zaif ekanini ko'rsatdi, tibbiy va ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirdi hamda sog'liqni saqlash iqtisodiy taraqqiyot va xavfsizlikda markaziy o'rin egallashini namoyish etdi. Pandemiyaning nazoratga olib, tiklanishga investitsiya yo'naltirayotgan ekanimiz, kelajakka ham tayyorgarlik ko'rishimiz lozim. Bunday vaziyat yana takrorlanishiga yo'l qo'yolmaymiz.

Janobi Oliylari, Xalqaro kodeks loyihasini ishlab chiqish masalasida uzoqni ko'zlaganingiz va bu jarayonda yetakchilik qilganingiz uchun Sizdan minnatdorman. Biz hujjatni diqqat bilan o'rganib chiqdik. Unda qo'yilgan vazifalarning ko'lami va taklif etilgan amaliy yechimlar menda katta taassurot qoldirdi. Kodeks loyihasi taqdim etilgani o'z vaqtida qabul qilingan qaror bo'ldi.

O'tgan yili biz pandemiya davridan ko'p saboq chiqardik va endilikda kelajakka nazar tashlashimiz kerak. Jahon sog'liqni saqlash assambleyasining COVID-19ga qarshi choralar bo'yicha WHA73.1 rezolyutsiyasiga muvofiq men 2020 yil sentyabr oyida ish boshlagan Xalqaro tibbiy-sanitariya qoidalarining (2005 yil) amal qilishini o'rganish Qo'mitasini chaqirdim hamda Pandemiya shaylikni ta'minlash va javob choralari bo'yicha Mustaqil guruhni ta'sis etdim.

Bundan tashqari, a'zo davlatlar tomonidan amalga oshirilayotgan jarayon doirasida Xalqaro tibbiy-

sanitariya qoidalariga qo'shimchalar kiritish maqsadida pandemiyaga shaylik va javob choralarini to'g'risida global hadli konvensiyani ishlab chiqish imkoniyati yuzasidan munozaralar davom etmoqda. Mazkur masala 2021 yil 18 mart kuni o'tgan JSSTning tashkilotga a'zo davlatlar uchun mo'ljallangan axborot sessiyasida muhokama qilindi, bu ko'plab mamlakatlarda qiziqish uyg'otdi va keyingi muhokamalar uchun qadam bo'lib xizmat qildi.

Barchaning xavfsiz kelajagiga sarmoya kiritish, barqaror va ishonchli sog'liqni saqlash tizimlarini barpo etish hamda sog'liqni saqlash sohasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday inqirozlarga shay turishga tayyorgarlik ko'rish vaqti keldi. Janobi Oliylari, siyosiy yetakchiligingiz tufayli Sizning bu boradagi ishtirokingiz hal qiluvchi ahamiyatga ega. Siz taqdim etgan Xalqaro kodeks loyihasi pandemiyani o'rganish bo'yicha amaldagi jarayonlarga va pandemiyaga qarshi kurashish bo'yicha har qanday bo'lajak xalqaro hujjatni rejalashtirishga bevosita bog'liq. Siz ushbu sa'y-harakatlarda shaxsan ishtirok etishda davom etishingizga umid qilaman.

Janobi Oliylari, COVID-19 pandemiyasini oldini olish va barchaning sog'lom va xavfsiz kelajagini ta'minlash ishiga sodiqligingiz uchun Sizga yana bir bor tashakkur bildiram. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti jamoat salomatligi sohasidagi ushbu global favqulodda vaziyatda Siz bilan hamjihatdir.

Janobi Oliylari, Sizga bo'lgan yuksak hurmat-ehтиromimni qabul qilgaysiz.

Eng ezgu tilaklar va minnatdorlik bilan

**Doktor Tedros Adanom Gebreyesus,  
Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bosh direktori**

**Manba**